



O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Erkayev Nodir Xudayberdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-3286-4034

nodir.erkaev@soliq.uz

Annotatsiya. Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan hamda soliq bazasining shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalarga asoslanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

ВЛИЯНИЕ НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Эркаев Нодир Худайбердиевич

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье анализируются особенности исчисления налоговой базы по налогу на добавленную стоимость, некоторые сложности и проблемы при ее определении, а также уделяется внимание вопросам совершенствования формирования налоговой базы. Кроме того, по результатам применения изменений и дополнений, внесенных в определение и расчет налоговой базы по налогу на добавленную стоимость, сделаны соответствующие выводы и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: добавленная стоимость, налоговая база по налогу на добавленную стоимость, налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, анализ регулирования, налоговая нагрузка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

THE IMPACT OF VALUE ADDED TAX ON THE COMPETITIVENESS OF THE ECONOMY IN UZBEKISTAN

Erkayev Nodir Khudaiberdiyevich
Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the specific features of calculating the value added tax base, some complexities and problems in its determination, and focuses on the issues of improving the formation of the tax base. In addition, based on the results of applying the changes and additions made to the determination and calculation of the value added tax base, relevant conclusions are drawn and recommendations are developed.*

Keywords: *value added, value added tax base, tax, budget policy, budget, tax administration, tax capacity, regulatory analysis, tax burden, tax reporting, tax revenues, tax incentives.*

Kirish.

Soliqqa tortish har qanday davlatning moliyaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, daromadlarni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda o'sib borayotgan iqtisodiyot sifatida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda QQS ma'muriyati sohasida o'ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qildi. O'zbekistonda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tartibi va QQS ma'muriyatining o'ziga xos jihatlari haqida umumiy ma'lumot berib, mamlakatda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlashda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratish muhimdir. Bundan tashqari, O'zbekistonning soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va QQS ma'muriyatiga bo'lgan yondashuvi raqamlashtirish va xalqaro savdodagi global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu esa O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va oqibatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Rus iqtisodiy lug'atida QQSni aniqlash quyidagicha ifodalagan: "Korxonada tovar va xizmatlar sotishdan olinadigan tushumlar hamda tashqi bozorning boshqa ishlab chiqaruvchilaridan olingan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning narxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan ushbu korxonaning qiymatini oshiruvchi miqdorda soliq undiriladi (Rayzberg, 2008).

Bir-biriga yaqin fikrlar bilan mamlakat qonunchiligida belgilangan ta'riflarni qo'llab-quvvatlagan olimlardan Polyak, Romanovskiylarning (2008) fikricha: "Qo'shilgan qiymat solig'i – ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida yaratilgan va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati va ishlab chiqarish hamda aylanma mablag'larga sarflangan moddiy xarajatlarning qiymati sifatida aniqlangan qo'shimcha qiymatning bir qismini budjetga olib chiqish shaklidir".

Toshmatov (2012) "Qo'shilgan qiymat solig'i bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan sotilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlarning bozor narxiga nisbatan hisoblangan bilvosita soliqdir deya ta'riflagan".

Pavlova va Dorojkolarining (2014) fikricha, "agar QQSning soliq stavkalarini kamaytirsak, unda budjet daromadlari sezilarli ravishda kamayadi, bu esa mablag'lar taqsimlanishining ko'payishiga olib keladi. Boshqa tomondan agar ta'riflarni ko'rib chiqsak, ko'pchilik tashkilotlar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni kuchaytiradilar, bunga ruxsat berilmaydi, chunki davlat budjeti kamroq moliyaviy resurslarga ega bo'ladi" deb hisoblaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini «Yevropacha» soliq deb ham atashadi. (Romanovskogo, Vrublevskoy, 2007).

Qo‘shilgan qiymat solig‘i fransuz iqtisodchisi Moris Lore (1958) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, 1954-yilda Kot-d‘Ivuar fransuz koloniyasida yangi soliq sifatida sinovdan o‘tkazilgan, 1958-yilda esa Fransiyada joriy etilgan. Keyinchalik Yevropaning barcha mamlakatlariga 1972-yil oxirigacha o‘z hududida xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun QQSni joriy etish bo‘yicha buyurtma berishgan. Hozirgi kunda 137 ta mamlakatda QQS joriy etilgan.

Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabilar (2016) esa qo‘shilgan qiymat solig‘i va davlat xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilib, ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash uchun davlat xarajatlarini qisqartirish, natijada esa QQS stavkasini ham pasaytirishni ilgari suradi.

Sabine Freizer tomonidan “O‘zbekistonda soliq ma‘muriyati islohoti va fiskal nazorat” (2006) nomli tadqiqotida O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilishning umumiy ko‘rinishini beradi va soliq yig‘ish mexanizmlarini takomillashtirish muammolari va imkoniyatlarini yoritadi. Muallif soliqlarni undirish jarayonini yaxshilashga soliq to‘lovchilarni o‘qitish va tushuntirish ishlarini yaxshilash, shaffoflik va mas‘uliyatni oshirish, soliq ma‘muriyatchiligi tizimini modernizatsiya qilish orqali erishish mumkinligini taklif qiladi.

Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) tomonidan “O‘tish davridagi mamlakatlarda soliq islohotlarining soliq qonunchiligiga ta‘siri: O‘zbekistondan olingan dalillar” nomli tadqiqotida soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirishga qaratilgan soliq islohotlari soliqqa rioya etish va daromadlarni yig‘ishni oshirishi mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar qo‘llashni jadal rivojlantirish davrida mamlakatimizda ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatdoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi. Shuningdek, davlatimizda erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni Konstitutsiyamizda alohida o‘rin egallagani, mulk daxlsizligi, iqtisodiy munosabatlardagi adolat tamoyilini belgiladi va demokratik islohotlarni yanada ochib berdi.

XVII-XIX asrlarda xorijlik olimlar budjet va milliy daromad o‘rtasidagi proporsiyani, korxonalar va fuqarolardan soliq olish o‘lchamlarini tahlil qilib berishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq majburiyatiga quyidagicha ta‘rif keltirilgan bo‘lib, “Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir” deb belgilangan (Kodeks, 2020).

Iris Klauis (2013) o‘zining “Qo‘shilgan qiymat solig‘i makroiqtisodiy barqarorlashtirishning foydali vositasidir” asarida Qo‘shilgan qiymat solig‘ining xalqaro amaliyotda samarali soliq sifatida tan olinganligiga alohida e‘tiborini qaratgan. Shuningdek, ayrim sohalarda uning salbiy tomonlarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, QQS inflyatsiya o‘sishiga, iste‘mol, investitsiyalar va jamg‘armalarning pasayishiga bilvosita salbiy ta‘sir ko‘rsatishi va shu orqali makroiqtisodiy barqarorlikni yomonlashtirishi aytiladi. QQSning davlat budjetiga tushgan tushumi ortishi, uning iqtisodiy salohiyatini oshishiga va bir vaqtning o‘zida xufiyona iqtisodiyotda QQS bilan bog‘liq ko‘zbo‘yamachilik va soliqdan qochish holatlarini ko‘payishiga ta‘sir qiladi.

Bu hususida Rossiyalik olim Aleksandrova (2017) bu boradagi tadqiqotlari natijasida “Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o‘tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo‘ymoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo‘llari va vositalarini izlash va

ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Darhaqiqat, bunday odamlarning soni ancha ko'p. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan, sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir", deb hisoblagan.

Kichik biznes maqomining noto'g'ri talqin qilinishini oldini olish maqsadida 2019-yildan tadbirkorlik subyekting soddalashtirilgan soliq rejimida qolishi yoki umumbelgilangan soliq rejimiga majburan o'tishini hal qiluvchi mezon sifatida yillik oborot (yalpi tushum) belgilandi. Unga ko'ra, yillik tushumi 1 mlrd. so'mdan oshgan korxonalar umumbelgilangan soliq rejimiga o'tadi va QQS to'lovchisiga aylanadi. Shu orqali QQS qamrovini kengaytirish ko'zda tutildi (Farmon, 2018). Artur Laffer (2004) tomonidan ishlab chiqilgan "Laffer egri chizig'i" konsepsiyasiga ko'ra, stavkalar qanchalik baland bo'lsa, soliqlarni to'lashdan bosh tortish yoki oxir-oqibat biznesni yopish uchun moyillik shunchalik katta bo'ladi.

"Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotlariga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning ulushi jahon mamlakatlari, jumladan, AQSHda 8,0 foiz, Braziliyada 36,5 foiz, Ispaniyada 21,7 foiz, Italiyada 19,5 foiz, Portugaliyada 18,5 foiz, Koreyada 18,4 foiz, Xitoyda 14,5 foiz, Kanadada 11,0 foiz, Germaniyada 10,2 foiz, Buyuk Britaniyada 9,6 foiz, Avstraliyada 9,0 foiz, Singapurda 8,6 foiz va Yaponiyada 8,1 foizni tashkil qildi" (uza.uz, 2025).

Ya'ni yuqori soliqlar (shu jumladan, QQS) sharoitida marjinal soliq tushumlarini kamaytirish qonuni amal qiladi – soliq stavkalari oshib borishi bilan tushumlar o'sishi sekinlashib boradi. QQS yuki tadbirkorlik faoliyati va soliq tushumiga, albatta, ta'sir qiladi, qaysiki maxsulot tannarxi orqali raqobatda bo'lgan nufuzi kamayadi oqibatda, tannarx, albatta, bozorda o'z o'rnini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Chunki QQS biznes daromadlarining bir qismini dastlabki bosqichidayoq kesib oladi. Umuman, egri soliqlarning hajmi va murakkabligi korxonalar moliyaviy holatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlariga juda seziladi. Chunki bunday korxonalar uchun soliqni to'lash xarajatlari yirik korxonalariga nisbatan ancha yuqori shakllanadi. Bundan tashqari, kichik va o'rta korxonalar QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun belgilangan eng kam tovar aylanmasi chegarasidan pastroqda ishlaydigan va QQS to'lamaydigan mayda biznes subyektlarining bevosita raqobatchisi hisoblanadi. QQS da nazorat mexanizmi, asosan, soliq bazasiga qaratiladi. Soliq bazasini aniqlashda, avvalo, uning tarkibi mezonlarga ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Soliq qonunchiligida QQS bazasi sifatida mahsulot (xizmat) larning sotish narxi nazarda tutiladi. Ya'ni Soliq kodeksiga asosan "soliq bazasi aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxida sotiladigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi (Kodeks, 2019)". Ammo haqiqatda real holatda soliq bazasi o'z nomi bilan qo'shilgan qiymatdir. Qo'llaniladigan hisoblash metodikasiga ko'ra sotib olingan mahsulotga to'langan QQSning hisobga olinishi korxonalar tomonidan to'lanadigan QQS aslida o'zi qo'shilgan qiymatga nisbatan to'lanishini anglatadi. Ammo moliyaviy hisobotlarda qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi aniqlanmaydi va alohida ko'rsatilmaydi. Shuning uchun qo'shilgan qiymatga soliqqa tortish nazaridan faqat sotib olingan va sotilgan mahsulot narxi o'rtasidagi farq sifatida qaraladi. Bunda shunga e'tibor berish lozimki, barcha sotib olingan mahsulotlar emas faqat qo'shilgan qiymat solig'i to'lanib olinganlari hisobga olinadi. Shu tufayli qo'shilgan qiymat tarkibiga aslida nimalar kiritilishini bilish muhim. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan qo'shilgan qiymatga foyda va ish haqi kiritiladi. Soliq to'lovchilar soni va budjetga tushum bo'yicha foizlardagi ulushi ortishi QQS stavkasiga xam bog'liq. Soliqlarni belgilashda yillik budjet parametrlari matritsalarini ishlab chiqilib, ehtimoliy profitsit yoki defitsit taxmin qilinadi. Ushbu hollarda, asosan, samaradorlik ko'rsatkichlari yoki prognoz ko'rsatkichlariga tayaniladi. Soliq stavkasi dinamikasida o'zgarishlar soliq to'lovchilar sonini ortishiga va soliqlarni budjetga tushumi ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "2023-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o'zi yetarli emas" (Mirziyoyev, 2022) ligini ta'kidlab o'tdilar.

Bilvosita turdagi bu soliq budjet tushumlari orasida juda katta qiyosiy salmoqqa ega. Yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynamoqda. QQS savdoda soliqqa tortishning muvaffaqiyatli chora deb tan olinib ham kelinmoqda.

Soliq va budjet siyosatining 2024 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari tasdiqlanganligi munosabati bilan Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

2023-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagicha imkoniyatlar yaratildi:

- tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marotaba o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

- jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida budjet buyurtmachilari bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunda soliq organlari tomonidan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi va maxsus axborot portali bilan ma'lumot almashinuvi ta'minlanmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligiga oid quyidagilar bekor qilindi:

- davlat xaridlarida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar takliflarini baholashda qo'shilgan qiymat soliq summasi inobatga olinmaydi;

- yuqori qo'shilgan qiymatli mis mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorga sotish bilan bog'liq xarajatlarini eksport qiymatining 6 foizigacha qoplash tartibi bekor qilinadi.

Shuningdek, ishonchli soliq to'lovchilarni inson omilisiz aniqlash tizimi joriy etilmoqda. Dori vositalarining davlat sog'likni saqlash muassasalariga bepul berilishi yoki amal qilish muddati qisqaligi sababli narxi pasaytirilgan qiymat bo'yicha realizatsiya qilinishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan xarajatlar (zararlar) deb e'tirof etilmoqda va mos ravishda foyda soliqni hisoblashda chegirib tashlanishi belgilandi.

2023-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlariga avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari va avtomobillarga gaz quyish stansiyalarida elektron o'lchash uskunalari va onlayn video kameralarini o'rnatish hamda ularni soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish majburiy hisoblanadi, paxta xomashyosi, g'alla yoki sholini qabul qilish va hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlarining operatorlari o'z tizimlarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari majburiy hisoblanishi belgilandi.

Barchaga ma'lum, inson omilisiz, elektron tizim yashirin iqtisodiyotning, qolaversa, korrupsiyaning oldini olishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bugungi kunda zamonaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni juda tez ortib bormoqda. O'tgan yilning o'zida soliq to'lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetdan foydalanishlar soni 40,5 milliontani (2020 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p), yuborilgan elektron hisobvaraqa-fakturalar soni 33,9 milliontani (2020 yilga nisbatan 1,6 baravar ko'p), onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali ro'yxatga olingan cheklar soni 417,4 milliontani (2020 yilga nisbatan 4 baravar ko'p) tashkil etdi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida giperkonvergent texnologiyasi yo'lga qo'yildi va u axborot tizimlariga yuklama hajmini serverlararo taqsimlab, ularning uzluksiz faoliyatini ta'minlab kelmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari. Soliq kodeksining 237-moddasi birinchi qismiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari quyidagilar hisoblanadi (Kodeks, 2020):

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 3) Agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa, O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari;
- 4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;
- 6) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi 595-son Qarori (2021) bilan soliq to'lovchilarni QQS to'lovchisi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazishni inson omili ta'siri cheklangan yangi tartibi joriy etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad insofli soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlagan holda ularni xufiyona iqtisodiyot bilan shug'ullanishni o'ziga maqsad qilib olgan, qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitimlarni amalga oshirishni rejalashtirgan soliq to'lovchilar bilan moliyaviy operatsiyalarga kirishishni oldini olishga qaratilgan.

Bunda soliq to'lovchilar va ularning kontragentlari faqat QQS to'lovchi guvohnomasi faol bo'lgan holatda QQS summasini hisobga olishga haqli bo'ladi. Arizalarni ko'rib chiqish muddati 7 kun qilib belgilangan, agar ariza ushbu muddatda ko'rib chiqilmasa, guvohnoma avtomatik ravishda beriladi. QQS to'lovchilarga berilgan faol holatdagi guvohnomalar har kuni avtomatik ravishda 18 ta mezonlar (soliq qarzi, rahbar shaxsi, hisobot taqdim etishi, manzilda joylashganligi va b.) bo'yicha tahlil qilib boriladi va dastur tomonidan soliq to'lovchi hech bo'lmaganda 1 ta mezon bo'yicha soliq xavfi yuqori darajasiga tushsa, guvohnomaning amal qilishi avtomatik ravishda vaqtincha to'xtatiladi, shuningdek, soliq to'lovchi kamchilikni bartaraf etgan taqdirda dasturda guvohnomani amal qilishi avtomatik ravishda tiklanadi.

Qayd etish joizki, QQS to'lovchisi guvohnomasining amal qilishi vaqtincha to'xtatilgan davrda soliq to'lovchi va uning kontragenti QQS summasini hisobga ololmaydi. Guvohnomaning amal qilishini vaqtincha to'xtatib turish, asosan, quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- soliq qarzi mavjud bo'lganda, bunda ikki oydan ortiq vaqt davomida QQS bo'yicha to'lanmagan soliq qarzi tushuniladi;
- uch oydan ortiq vaqt davomida moliya xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganda (mavsumiy faoliyatga ega shaxslar mustasno);
- soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar toifasiga tushganda.

Bunda, soliq to'lovchi tomonidan soliq xavfi yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan holatlar va kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng QQS guvohnoma berilishi va aktivlashtirilishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son Farmoniga asosan soliq xavfining yuqori darajasiga ega soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomasining amal qilishi bu haqida soliq organlari tomonidan besh ish kuni oldin xabarnoma yuborilgandan so'ng hamda mazkur muddatda kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda to'xtatib turish tartibi joriy etiladi. Subyektlar tomonidan QQS to'lovchisi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tish uchun ariza taqdim etish hamda

ushbu arizani soliq organlarida ko'rib chiqish tartibi: Soliq to'lovchi ixtiyoriy yoki majburiy tartibda tanlagan holda ariza taqdim etishi mumkin. Soliq kodeksining 237 hamda 461-moddasiga asosan QQS to'lash majburiyati yuzaga kelgan korxonalar majburiy tartibni tanlagan holda ariza taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son Farmoni bilan 2022-yil 1-iyuldan majburiy ravishda QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etiladigan tadbirkorlik subyektlariga QQS bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma soliq xavfi darajasiga aniqlik kiritilmasdan turib avtomatik ravishda berish tartibi joriy etildi.

Ushbu farmonga asosan majburiy tartibda taqdim etilgan arizalarga 1 daqiqa ichida avtomatik tarzda QQS guvohnoma rasmiylashtirilmoqda.

QQS guvohnomasi berilgandan so'ng dastur avtomatlashtirilgan tahlil tizimida soliq xavfi mezonlari bo'yicha tekshiradi. Soliq xavfining yuqori mezonlari aniqlansa, 5 ish kuni aniqlangan kamchilik sabablari va bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi. Ushbu jarayonlar inson omili cheklangan holda to'liq avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi.

QQS to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tmoqchi bo'lgan korxonalar tomonidan ixtiyoriy tartib tanlangan holda ariza taqdim etiladi, bunda korxonaning keyingi oyning birinchi sanasidan QQS to'lashga o'tishi mumkin.

1. Ariza taqdim etilgan zahoti avtomatlashtirilgan tizim 13 ta yuqori xavf mezonini bo'yicha korxonaning faoliyatini tahlil qiladi hamda ulardan hech bo'lmaganda bittasi aniqlanganda ham ariza rad etiladi, aniqlangan kamchilik hamda uni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan xabarnoma va arizani rad etish qarorini shaxsiy kabinetga yuboradi.

2. Tizim tomonidan kamchilik aniqlanmaganda, dastur tomonidan subyekt joylashgan DSIning birinchi o'rinbosari "EDO" dasturiga arizachining ro'yxatdan o'tgan manzilda haqiqatda mavjudligini o'rganish hamda belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtirish bo'yicha 3 kun muddat bilan topshiriq yuboradi.

3. Bir vaqtning o'zida DSB mas'ul xodimi 7 ish kunida korxonada tovarlar nomutanosiblik holatlari mavjudligi, soliq hisobotlarining to'g'ri taqdim etilganligini o'rganadi hamda belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtiradi.

4. O'rganishlar natijasida subyektida soliq xavfining yuqori darajasi aniqlanmaganda maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida kamchilik aniqlanganda arizani rad etish to'g'risida qaror va xabarnoma shakllantiriladi hamda shaxsiy kabinetga yuboriladi.

Ushbu jarayonlar inson omili cheklangan holda to'liq avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda soliq va ma'muriy javobgarlik sohasini qisqartirish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimini va tamoyillarini, soliq to'lovlarining amalga oshirilishini hisobga olish tizimini imkon qadar soddalashtirsak, xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'g'ri ishlash mexanizmi yuzaga kela boshlaydi va soliqlardan qochish holatlari kamayadi.

Milliy iqtisodiyotimizni xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish va mahalliy mahsulotlar ulushida eksport hajmini oshirishda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish muhim masalalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mahsulotlar tannarxini pasayishi va iste'mol tovarlari o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirilishi maqsadida soliq to'lovchilarda adolatlilik tamoyili asosida ish ko'rilishi, bir turdagi iste'mol tovariga imtiyoz qo'llanilgan taqdirda, uning tarkibini tashkil qiluvchi mahsulotlarda xam imtiyozlar qo'llanilishi bevosita jamiyatda berilgan imtiyozlarni amalga kiritilishi va iste'mol tovarlar narxlarini sezilarli ta'sir qilishini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni, 2018-yil 29-iyun.

Iris Klauis (2013), *The value added tax a useful macroeconomic stabilization instrument.*

Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong. (2019) *The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform.* // *China Economic Review.* Volume 54, April. – Pages 135-146

Kodeks (2019) Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599 bilan qabul qilingan. 336-bet.

Laffer A.B. (2004) *The Laffer Curve: Past, Present, and Future. Background.* The Heritage Foundation, 1 June, No.1765. pp. 2-page

Mirziyoyev Sh. (2022) <https://president.uz/oz/lists/view/5774> 2022-yil 20-dekabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi (2016). *Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government.* // *Procedia Economics and Finance.* Volume 36,. Pages 336-344.

Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. (2016) *Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government.* // *Procedia Economics and Finance.* Volume 36,. Pages 336-344.

Sabine Freizer (2006) tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat":<https://documents1.worldbank.org/curated/en/542691624154434845/text/Uzbekistan-Tax-Administration-Reform-Project.txt>

Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) https://www.files.ethz.ch/isn/139068/643172_sa231.pdf.

uza.uz (2025) Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги - расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, қонун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар Расмий хабарларни биринчилардан бўлиб бизнинг иловамизда ўқинг. [online] Uza.uz. Available at: <https://uza.uz/ru/posts/past-daromadli-davlatlarda-xufiyona-iqtisodiyot-kolami-oshishi-bilan-korruptsiya-darazhasi-ham-oshadi>

Александрова Л.И. (2017) Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // *Актуальные проблемы правового регулирования.* С.2.

Кодекс (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси - Тошкент: Гафур Ғулом нашриёт уйи.- 640 б.

Қарор (2021) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 22-сентябрдаги " Солиқ тўловчиларни ҳисобга олишни янада такомиллаштириш ва қўшилган қиймат солиғининг ўрнини қоплаш тартибини соддалаштириш чоратадбирлари тўғрисида" ги 595-сонли Қарори.

Морис Лоре (1958) *Налоги и налогообложение: Учебник для вузов.* 4-е изд. — И.Д Питер "Во Франции он стал применяться с 1958 г".

Павлова Е.В., Дорожко Д.А. (2014) *Безработица как социально-экономическое явление в современной экономике. Проблемы безработицы в Российской Федерации и меры по её снижению* // *Вектор науки Тольяттинского государственного университета.* Серия: Экономика и управление.. № 3 (18). С. 29–31. №2.

Райзберг Б.А. (2008) *Современный экономический словарь [Текст] / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева.* – М.: ИНФРА-М., – 512 с.

Романовский М.В. (2008) *Налоги и налогообложение: налог на добавленную стоимость/М.В. Романовский, О.В.Врублевская.* – СПб.: Питер., – 576 с.

Романовского М.В., Врублевской О.В. (2007) *Налоги и налогообложение: учебник [Текст] / под ред. М.В.Романовского, О.В. Врублевской.* – 6-е изд. – СПб.: Питер, – 491 с.

Тошматов Ш.А. (2012) *Қўшилган қиймат солиғи. Монография.* -Т: "Молия",. 15 б; 160 бет.